# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5 (2)



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*
*2-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI ........ 12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li

O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ........ 16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich

РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ........ 21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи

ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH ........ 27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li

RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 32
Azlarova Aziza Axrorovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI ........ 41
M.O. Yo'ldoshova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**M.O. Yo‘ldoshova**
Fan va texnologiyalar universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi
dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini strategik boshqarish metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, biznes muhitini modernizatsiya qilish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tadbirkorlik subyektlari strategik boshqaruv tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Maqolada strategik boshqaruv metodologiyasining an’anaviy yondashuvlari raqamli transformatsiya sharoitida qayta ko‘rib chiqilib, ularni adaptivlik, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, raqamli yetuklikni baholash, dinamik qobiliyatlar, biznes modeli transformatsiyasi, ekotizim asosidagi hamkorlik hamda moslashuvchan nazorat mexanizmlari bilan boyitish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, muallif tomonidan tadbirkorlik subyektlari uchun ustuvor yo‘nalishlar va konseptual metodologik model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya, tadbirkorlik subyektlari, metodologiya, dinamik qobiliyatlar, raqamli yetuklik, biznes modeli, adaptiv boshqaruv, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. This article examines the priority directions for improving the methodology of strategic management of business entities in Uzbekistan in the context of digital transformation. The regulatory and legal framework adopted in the country to develop the digital economy, modernize the business environment, and enhance managerial efficiency has created new requirements for the strategic management systems of business entities. The article revisits traditional approaches to strategic management methodology under conditions of digital transformation and substantiates the necessity of enriching them with adaptability, data-driven decision-making, digital maturity assessment, dynamic capabilities, business model transformation, ecosystem-based collaboration, and flexible control mechanisms. In addition, the author proposes priority directions and a conceptual methodological model for business entities.

Key words: strategic management, digital transformation, business entities, methodology, dynamic capabilities, digital maturity, business model, adaptive management, digital economy.

Аннотация. В данной статье исследованы приоритетные направления совершенствования методологии стратегического управления деятельностью субъектов предпринимательства в Узбекистане в условиях цифровой трансформации. Принятые в стране нормативно-правовые документы, направленные на развитие цифровой экономики, модернизацию деловой среды и повышение эффективности управления, формируют новые требования к системам стратегического управления субъектов предпринимательства. В статье традиционные подходы к методологии стратегического управления переосмыслены в условиях цифровой трансформации, а также обоснована необходимость их дополнения адаптивностью, принятием решений на основе данных, оценкой цифровой зрелости, динамическими способностями, трансформацией бизнес-модели, экосистемным взаимодействием и гибкими механизмами контроля. Кроме того, автором предложены приоритетные направления и концептуальная методологическая модель для субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: стратегическое управление, цифровая трансформация, субъекты предпринимательства, методология, динамические способности, цифровая зрелость, бизнес-модель, адаптивное управление, цифровая экономика.

## KIRISH

Bugungi kunda raqamli transformatsiya tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barcha yo'nalishlariga, jumladan, strategik boshqaruv tizimiga ham tub ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida bozorlar, iste'molchi xulqi, logistika, moliyalashtirish mexanizmlari, ichki operatsion jarayonlar hamda raqobat muhiti o'zgarib bormoqda. Shu bois strategik boshqaruv metodologiyasini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. OECDning 2024–yildagi hisobotlarida ham raqamli transformatsiyaning hozirgi bosqichi tezkor texnologik o'zgarishlar, yangi boshqaruv talablari va iqtisodiy imkoniyatlar bilan tavsiflanishi qayd etilgan [4].

O'zbekistonda ushbu jarayon davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Jumladan, Prezidentning PQ–3832-son qarorida[1] raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish vazifalari belgilangan [1]. PF–6079-son Farmon[2] bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlanib, iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron hukumatni rivojlantirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2]. 2023–yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida esa xususiy sektorni kengaytirish, biznes muhitini yaxshilash va raqamli iqtisodiyotni jadallashtirish taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida mustahkamlangan [3].

Mazkur sharoitda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini strategik boshqarish metodologiyasini raqamli transformatsiya talablariga moslashtirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi O'zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini strategik boshqarish metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda mualliflik konseptual modelini taklif etishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya va strategik boshqaruv o'rtasidagi bog'liqlik so'nggi yillarda jahon ilmiy adabiyotida faol o'rganilmoqda. Vial raqamli transformatsiyani raqamli texnologiyalar ta'sirida yuzaga keladigan uzilishlar natijasida tashkilotlarning qiymat yaratish mexanizmlarini o'zgartirishga qaratilgan strategik jarayon sifatida izohlaydi [5]. Verhoef va hammualliflar esa raqamli transformatsiya natijasida iste'molchi xulqi, biznes modellari, aktivlar hamda tashkilot qobiliyatlariga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarishini ta'kidlaydi [6]. Plekhanov va hammualliflar raqamli transformatsiya tadqiqotlarining tizimli sharhida ushbu jarayon korxonalarni strategiya va operatsion faoliyatni qayta ko'rib chiqishga majbur qilayotganini qayd etadi [7].

Dinamik qobiliyatlar yondashuvi mazkur mavzu uchun alohida metodologik ahamiyatga ega. Ellström va hammualliflar raqamli transformatsiyani tushuntirishda dinamik qobiliyatlar nazariyasi samarali ekanini hamda tashkilotlar tez o'zgaruvchan muhitda resurs va jarayonlarni qayta konfiguratsiya qila olishi zarurligini asoslaydi [8]. Ushbu yondashuvga ko'ra, strategik boshqaruv metodologiyasi qat'iy rejalashtirishdan ko'ra moslashuvchanlik, uzluksiz o'rganish va qayta tashkil etish qobiliyatlariga tayanishi lozim.

Strategik boshqaruv metodologiyasini modernizatsiya qilishda konseptual vositalar ham ishlab chiqilgan. Elia va hammualliflar tomonidan taklif etilgan "Digital Transformation Canvas" modeli raqamli transformatsiyani samarali boshqarishda rollar, kompetensiyalar, xulq-atvor va tashkiliy omillarni o'zaro uyg'un holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi [9]. Shu bois raqamli transformatsiya sharoitida strategik boshqaruv metodologiyasi nafaqat tashqi muhit tahlili va strategik rejalashtirishni, balki ichki boshqaruv arxitekturasi, kompetensiyalar, tashkiliy moslashuvchanlik hamda ijro mexanizmlarini ham qamrab olishi zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini strategik boshqarish metodologiyasini takomillashtirish masalalari tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, OECD, Jahon banki va O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot hamda strategik boshqaruvga oid normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida raqamli transformatsiyaning strategik boshqaruvga ta'siri, dinamik qobiliyatlar, raqamli yetuklik, biznes modeli transformatsiyasi hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv konsepsiyalari ilmiy jihatdan umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida tadbirkorlik subyektlari uchun strategik boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari va konseptual modeli ishlab chiqildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son https://lex.uz/docs/-3806053
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son https://lex.uz/docs/-5030957

## TAHLIL VA NATIJALAR

1. Strategik boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish zarurati

O‘zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya nafaqat texnologik modernizatsiyani, balki boshqaruv metodologiyasini yangilashni ham talab etmoqda. Davlat siyosatida raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi sababli, korxonalar strategik boshqaruv tizimini yangi raqamli muhit talablariga moslashtirmasa, ularning raqobatbardoshligi pasayishi mumkin [1], [2], [3]. Shu nuqtayi nazardan, strategik boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish faqat raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki strategik fikrlash, boshqaruv usullari hamda nazorat mexanizmlarini qayta shakllantirishni ham anglatadi.

2. Ustuvor yo‘nalishlar

Birinchi ustuvor yo‘nalish — raqamli strategik diagnostikani rivojlantirishdir. Tadbirkorlik subyekti o‘zining raqamli yetuklik darajasi, infratuzilma holati, ma’lumotlar sifati, xodimlar kompetensiyasi hamda boshqaruv madaniyatini kompleks baholashi lozim. Bunday diagnostika strategik qarorlar qabul qilish uchun boshlang‘ich analitik asos vazifasini bajaradi [4], [10].

Ikkinchi ustuvor yo‘nalish — dinamik qobiliyatlarni strategik boshqaruv metodologiyasining markaziy elementiga aylantirishdir. Raqamli transformatsiya sharoitida strategik boshqaruv samaradorligi korxonaning tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni tezkor aniqlashi, yangi imkoniyatlarni o‘zlashtirishi hamda resurslarni qayta tashkil eta olish qobiliyatiga bog‘liq [8]. Shu sababli strategik metodologiya moslashuvchanlik va adaptiv boshqaruv tamoyillariga asoslanishi zarur.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish — biznes modelini qayta ko‘rib chiqishdir. Raqamli transformatsiya mahsulot va xizmatlar tarkibi, mijozlar bilan munosabatlar, sotuv kanallari hamda hamkorlik mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu bois strategik boshqaruv metodologiyasi biznes modelini doimiy ravishda takomillashib boruvchi dinamik tizim sifatida talqin qilishi lozim [5], [6], [7].

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish — ma’lumotlarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish tizimini shakllantirishdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumot muhim strategik resursga aylanmoqda. Shu sababli real vaqt rejimidagi indikatorlar, analitik panellar, prognozlash vositalari va senariy tahlili strategik boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qo‘llanilishi zarur [4].

Beshinchi ustuvor yo‘nalish — moslashuvchan ijro va strategik nazorat mexanizmlarini rivojlantirishdir. Raqamli transformatsiya strategiyani ishlab chiqish bilan bir qatorda uni amalga oshirish mexanizmlarini ham o‘zgartirmoqda. An’anaviy qat’iy rejalashtirish yondashuvlari o‘rniga iterativ, tajriba-sinovga asoslangan va tezkor tuzatishlar kiritishga imkon beruvchi boshqaruv yondashuvlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi [9].

Oltinchi ustuvor yo‘nalish — ekotizimli integratsiyani kuchaytirishdir. Raqamli muhitda korxonalar qiymatni ko‘pincha mustaqil ravishda emas, balki platformalar, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar, hamkor tashkilotlar hamda mijozlar bilan hamkorlik asosida yaratadi. Shu sababli strategik boshqaruv metodologiyasi tashqi ekotizim bilan integratsiyalashuv jarayonlarini ham qamrab olishi zarur [4], [6] (1-jadval).

1-jadval. Strategik boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari[3]

| Ustuvor yo‘nalish | Mazmuni | Kutiladigan natija |
|---|---|---|
| Raqamli strategik diagnostika | Raqamli yetuklik darajasi, infratuzilma va kompetensiyalarni baholash | Strategik qarorlar qabul qilish uchun aniq boshlang‘ich baza shakllanishi |
| Dinamik qobiliyatlar | Tezkor moslashuv va resurslarni qayta konfiguratsiya qilish | Raqobatbardoshlik darajasining oshishi |
| Biznes modeli transformatsiyasi | Qiymat yaratish zanjirini modernizatsiya qilish | Yangi bozorlarga chiqish va samaradorlikning oshishi |
| Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv | Data-driven qarorlar qabul qilish va tahliliy nazoratni rivojlantirish | Qarorlar sifati va tezkorligining oshishi |
| Moslashuvchan ijro | Strategiyani iterativ amalga oshirish va tezkor tuzatishlar kiritish | Strategiya ijrosi samaradorligining oshishi |
| Ekotizimli integratsiya | Hamkorlik va platformalar bilan integratsiyalashgan faoliyatni rivojlantirish | Tashqi sinergiya va innovatsion salohiyatning kuchayishi |

3. Taklif etilayotgan konseptual model

Muallif fikriga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida strategik boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish quyidagi ketma-ket bosqichlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son https://lex.uz/docs/-3806053

- Raqamli muhitni tahlil qilish — tashqi trendlar, texnologik tahdidlar va imkoniyatlarni aniqlash;
- Raqamli yetuklik diagnostikasi — korxonaning ichki tayyorgarlik darajasini baholash;
- Strategik maqsadlarni qayta formulalash — raqamli transformatsiyaga mos ustuvor yo‘nalishlarni belgilash;
- Dinamik qobiliyatlarni shakllantirish — moslashuvchanlik va qayta konfiguratsiya salohiyatini rivojlantirish;
- Moslashuvchan ijro mexanizmlarini joriy etish — strategiyani iterativ boshqarish tamoyillarini qo‘llash;
- Natijalarni monitoring qilish va yangilash — strategik boshqaruv tizimini uzluksiz takomillashtirib borish.

Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, u strategik boshqaruvni faqat rejalashtirish vositasi sifatida emas, balki raqamli transformatsiya sharoitida doimiy ravishda moslashib va takomillashib boruvchi boshqaruv tizimi sifatida talqin qiladi [5], [8], [9].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini strategik boshqarish metodologiyasini takomillashtirish iqtisodiy siyosat va biznes amaliyoti nuqtayi nazaridan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda qabul qilingan raqamli rivojlanish strategiyalari hamda iqtisodiy taraqqiyot dasturlari tadbirkorlik subyektlaridan strategik boshqaruvning yanada moslashuvchan, ma’lumotlarga asoslangan va raqamli integratsiyalashgan modeliga o‘tishni talab etmoqda.

Maqolada asoslab berilganidek, strategik boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga raqamli strategik diagnostikani rivojlantirish, dinamik qobiliyatlarni shakllantirish, biznes modelini transformatsiya qilish, ma’lumotlarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish tizimini rivojlantirish, moslashuvchan ijro mexanizmlarini joriy etish hamda ekotizimli integratsiyani kuchaytirish kiradi. Mazkur yo‘nalishlar tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya sharoitida strategik boshqaruv metodologiyasi statik va an’anaviy yondashuvlardan bosqichma-bosqich voz kechib, adaptiv, dinamik va raqamli integratsiyalashgan boshqaruv modeli sifatida shakllanishi zarur. Mazkur yondashuv tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy iqtisodiy muhitdagi barqarorligi, innovatsion salohiyati va strategik moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018–yil 3–iyuldagi PQ–3832-son qarori. https://lex.uz/docs/-3806053
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 5–oktabrdagi PF–6079-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5030957
3. OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024 (Volume 1); OECD Digital Economy Outlook 2024 (Volume 2). – Paris: OECD Publishing, 2024.
4. Vial, G. Understanding Digital Transformation: A Review and a Research Agenda // Journal of Strategic Information Systems. – 2019.
5. Verhoef, P.C. va hammualliflar. Digital Transformation: A Multidisciplinary Reflection and Research Agenda // Journal of Business Research. – 2021.
6. Plekhanov, D. va hammualliflar. Digital Transformation: A Review and Research Agenda // Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2023.
7. Ellström, D. va hammualliflar. Dynamic Capabilities for Digital Transformation // Journal of Strategy and Management.
8. Elia, G. va hammualliflar. The Digital Transformation Canvas: A Conceptual Framework for Leading the Digital Transformation Process. – 2024.
9. OECD. Advancing the Digital Transformation of Armenian Businesses. – Paris: OECD Publishing.
10. Jahon banki materiallari: O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va IT sohasida ish o‘rinlarini yaratishni qo‘llab-quvvatlashga oid axborotlar.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz